
TOSHLOQ TUMANIDA "MAHALLADA DUV-DUV GAP" TADBIRLARI DAVOM ETMOQDA

“Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida o‘tkazilayotgan “Mahallada duv-duv gap” ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot tadbirlari tumandagi “Farog‘at” mahalla fuqarolar yig‘inida ham ko‘tarinki ruhda o‘tkazildi.

Yurtimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, amalga oshirilayotgan tub islohotlar mohiyatini aholiga yaqindan yetkazish maqsadida tashkil qilingan tadbirda ilm-fan va san‘at ahli, keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev boshchiligida 2023 yil 22 dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi yig‘ilishida aytib o‘tilgan yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlarni asrash, ma’naviyat va madaniyat sohasidagi masalalar, ijro etilishi zarur bo‘lgan vazifalar mohiyati aholiga tushuntirildi.

Tadbir badiiy kechaga ulandi xonandalar tomonidan ijro etilgan Vatanni, ezgulikni madh etuvchi kuy-qo‘shiqlar, mahalla ahliga yuqori kayfiyat bag‘ishladi.

2024-01-06 14:23:21